

BIOLOGIYANI O`QITISHDA XUSUSIY METODIK DARAJADAN FOYDALANIB, O`QUVCHILARNING DARSLIK BILAN ISHLASH KO`NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

*Samarqand viloyati Payariq tumani 77-maktab biologiya fani o'qituvchisi
Qobilova Dilfuza Ergashovna*

Annotatsiya: Bu maqolada biologiyani o`qitishda xususiy metodik darajada darsning barcha bosqichlari pedagogik texnologiya talablari asosida tashkil etilishi haqida so`z brogan bo`lib, o`qituvchining darslik bilan ishlash salohiyatini oshirish uchun xizmat qiladi.

Kalit so`zlar: lokal (modul) darajada, ko`nikma, malaka, o`yin mashqlar, musobaqa, trening, darslik bilan ishlash, o`qitish usullari, ta`lim texnologiyalari, intellekual, rolli o`yin, metod, amaliy dars, arlash guruh, faollashtirish, do'stona munosabat, evristik suhbat.

Ta`lim jarayonining yuqori cho`qqiga ko`tarilishi bilan o`qituvchi va dars jarayoniga qo`yiladigan talab ham kundan kunga ortib bormoqda. Shunung uchun ham dars jarayonida turli metod va usullarni qo`llash samara berayotgani bu bor gap. Biologiya o`qituvchisi o`quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish maqsadida avval darsning ma'lum bosqichida lokal (modul) darajada qo`llashi maqsadga muvofiq. Bunda avval yangi mavzu o`rganilib, o`quvchilarning o`zlashtirgan bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashda nazorat testlari, turli o`yin mashqlar, musobaqa, trening o'tkazadi. O`quvchilarning bu faoliyatga kirishishi va muayyan ko`nikma va malakalarni egallaganidan so'ng, pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslarni o'tkazishi, ya'ni xususiy metodik darajada qo'llanishi mumkin.

Xususiy metodik darajada darsning barcha bosqichlari pedagogik texnologiya talablari asosida tashkil etiladi. Bunda o`qituvchi o`rganiladigan mavzuning ta'limiy,

tarbiyaviy va rivojlantiruvchi, maqsadlaridan kelib chiqqan holda qaysi texnologiyadan foydalanish, mazkur texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, darsda o'quvchilarning bilishi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimini nazorat qilish va baholash yo'llarini belgilash lozim.

Biz pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari, mohiyati va mazmuniga ko'ra ikki guruhga ajratdik:

1.Pedagogik jarayonning xarakteri, borishi va mazmunini o'zgarishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar

2.Biologiya darslarda foydalaniladigan texnologiyalar.

Pedagogik jarayonning borishi va mazmunini o'zgartirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar guruhiga:

-Ta'lism jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish texnologiyasi

-Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar

-Rivojlantiruvchi ta'lum texnologiyalar

-Ta'lumi differensiallashtirish va individuallashtirish.

Biologiya darslarida foydalanilgan texnologiyalar guruhiga: didaktik o'yin texnologiyasi, muammoli ta'lum texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, loyihalash texnologiyasi, modulli ta'lum texnologiyasi va an'anaviy ta'lum texnologiyalari kiradi.

Kitob bilan mustaqil ishslash. Umumiy ta'limda kitobdan foydalana bilish katta ahamiyatga ega. O'quvchilarni kitob bilan ishslashga o'rgatish o'qituvchining asosiy vavzifalaridan biri hisoblanadi. Kitob bilan ishslashni bilish-bu o'qigan materialni tushunib, asosiy narsalarni ajratib olish va esda saqlab qolishdan iborat. Bu borada uya vazifani darslik bo'yicha to'g'ri bajarish ayniqsa muhim hisoblanadi.

Biologiya darsligi bo'yicha ishslash mavzuni ongli ravishda o'zlashtirib olishdan mavzu mazmunidan asosiy fikirlarni ajratib olish, rasmlarni o'rghanish, yangi olingan bilimni oldin o'rganilgan mavzular bilan bog'lay bilish, bilimni sistemaga solish va esda saqlab qolishdan iborat. O'quvchilar darslikda yozilganlarni so'zma-so'z eslab

qolishga harakat qilishadi yoki o`tilganlardan ayrim tushunchalarni qisman hech qanday sistemasiz eslab qolishadi. O`qituvchi o`quvchilarni o`rganilgan materialni kitob bo`yicha muayyan tartibda tushuntirishga, mantiqiy fikrlashga o`rgatishi lozim. O`qituvchi o`qitish jarayonida o`quvchilarga faqat bilim berib qolmay, unga bilim olish metodini ham o`rgatishi lozim.

Ko`p hollarda darsdan tashqari mustaqil o`qitish darslikdagi mavzular oxirida berilgan topshiriqlarni bajarish va jadvallarni to`ldirishdan iborat bo`ladi. Ba`zan ayrim o`qituvchilar darsda darslikni mustaqil o`qib, o`qilgan dars materiallarini tushuntirib berishni o`quvchilar oldiga vazifa qilib qo`yishadi. Mavzular oxirida beriladigan topshiriqlarga javob berish ko`p hollarda o`quvchining ancha chuqr bilimga ega bo`lishi bilan bog`liq. Mustaqil bilim o`rganish o`quvchidan maxsus tayyorgarlik va malakaga ega bo`lishni talab qiladi.

Xulosa o`rnida shuni takidlash lozimki, xususiy metodik daraja orqali darlik bilan samarali ishlashni tashkila etish o`qituvchi qobiliyatiga bog`liq jarayondir. Mustaqil ishni tashkil etish va unga rahbarlik qilish bu har bir o`qituvchi uchun ma'suliyatli va murakkab ishdir. O`quvchining faolligini hamda mustaqilligini tarbiyalashga butun ta'lim - tarbiya jarayonining zarur tarkibiy qismi sifatida qarash lozim. Bu masala har bir o`qituvchi oldida turgan birinchi darajadagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Turg`unov S.T, Daniyarov B.X, Otajonova D.M. O`qituvchilarning kasbiy kompetentiligini rivojlantirishda ta`lim muasasasi rahbarlarining funksional vazifalari. – Toshkent: Sano-standart, 2011 y.
2. Pedagogika entsiklopediya. 2-tom, O`zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2015 y.
3. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Moliya nashriyoti. 2003 y.